

LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH MEZONLARI

Imomova Dilafro‘z Rustam qizi

“China Road Trans” MChJ tarjimon-maslahatchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimida liderlik kompetensiyalarini baholash muammosi ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Liderlik kompetensiyalarining mazmuniy tuzilmasi asosida ularni baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajaviy indikatorlari ishlab chiqiladi. Tadqiqotda kognitiv, operatsion-faoliyat, kommunikativ, refleksiv hamda axloqiy-ijtimoiy komponentlar kesimida baholash mexanizmlari asoslanadi. Taklif etilgan baholash modeli ta’lim rahbarlari va pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: liderlik kompetensiyasi, baholash mezonlari, ta’lim menejmenti, pedagogik liderlik, kompetensiyaviy yondashuv, monitoring.

Zamonaviy ta’lim tizimida boshqaruv faoliyatining samaradorligi, ta’lim sifati va innovatsion rivojlanish bevosita ta’lim subyektlarining liderlik kompetensiyalariga bog‘liqdir. Ta’lim rahbarlari va pedagoglarning faqat lavozimiy vakolatlari emas, balki strategik fikrlashi, jamoani ilhomlantirish, qaror qabul qilish va o‘zgarishlarni boshqarish qobiliyati ta’lim natijalarini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. Shu sababli liderlik kompetensiyalarini shakllantirish bilan bir qatorda, ularni ilmiy asoslangan mezonlar orqali baholash dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida liderlik sifatlari ko‘pincha subyektiv yondashuv asosida baholanadi, bu esa real kasbiy salohiyatni aniqlashga imkon bermaydi. Kompetensiyaviy yondashuv esa baholashni natijaga yo‘naltirilgan, o‘lchab bo‘ladigan va kuzatiladigan ko‘rsatkichlar asosida tashkil etishni talab etadi. Shu nuqtayi

nazardan, liderlik kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish ilmiy-metodik ahamiyatga ega.

Liderlik kompetensiyasini baholash masalasi pedagogika, menejment va psixologiya fanlarining tutash nuqtasida shakllangan. Kompetensiya natijaviy kategoriya sifatida shaxsning real faoliyatda namoyon bo'ladigan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar majmuasini ifodalaydi. Shuning uchun baholash jarayoni faqat bilimni tekshirish bilan cheklanmasdan, faoliyat samaradorligini aniqlashga yo'naltirilishi lozim.

Ilmiy adabiyotlarda liderlik kompetensiyalarini baholash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- tizimlilik va komplekslik;
- mezon va ko'rsatkichlarning aniqligi;
- baholashning ochiqligi va shaffofligi;
- rivojlantiruvchi (formativ) baholash ustuvorligi.

Liderlik kompetensiyasini baholashda **mezon** – bu sifat darajasini aniqlovchi umumiy o'lchov, ko'rsatkich esa mazkur mezonning konkret namoyon bo'lish shaklidir.

Tadqiqot doirasida liderlik kompetensiyalari quyidagi asosiy komponentlar asosida baholanadi:

- kognitiv;
- operatsion-faoliyat;
- kommunikativ;
- reflektiv;
- axloqiy-ijtimoiy.

Liderlik kompetensiyalarini baholash matritsasi

Baholash usuli	Liderlik kompetensiyalari doirasi					
	Baholash usuli	Liderlik va liderlik ko'nikmalari			Madaniy moslashuv	Intelekt
	Moslashish va biznesni muvofiqlashtirish qobiliyati	Texnik va funksional ko'nikmalar	Tashkilotni boshqarish	Jamoani boshqarish va yetakchilik	Motivatsiya, qadriyatlar va shaxsiy ehtiyojlar	O'uvchanlik va aqliy salohiyat
Kompetensiya asoslangan 360 darajali so'rov	Kompetensiyaga asoslangan 360 darajali sorov	Baskuv amaliy topshiriq	Liderlik va liderlik ko'nikmalar	Madaniy moslashuv	Intelekt	
Kompetensiyaga asoslangan suhbat						
Maxsus amaliy topshiriq						
Faoliyat simulyatsiyasi						
Kognitiv qobiliyat testi						
Abstrakt tafakkur testi						
Maxsus topshiriqli baholash					Baholash samaradorligi: Yuqori	

Manba: adaptiya qilingan Auxem Consulting Partners, 2011

Baholash samaradorligi: Yuqori
 Yuqori Past

1-rasm. Liderlik kompetensiyalarini baholash matritsasi

Mazkur komponentlar ta'limdagi liderlik faoliyatining to'liq siklini qamrab oladi va baholashning ilmiy asosini tashkil etadi.

Kognitiv komponent liderning nazariy tayyorgarligi va konseptual fikrlash darajasini ifodalaydi. Ushbu komponent quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- ta'lim menejmenti va liderlik nazariyalarini bilish;
- normativ-huquqiy hujjatlarni tushunish;
- strategik rejalashtirish bilimlariga ega bo'lish.

Baholash ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- ta'lim rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyati;
- muammoli vaziyatlarni nazariy asosda tahlil qilish;
- ilmiy manbalar bilan ishlash.

Operatsion komponent liderlikning amaliy ifodasidir. U real vaziyatlarda qaror qabul qilish va boshqaruv faoliyatini amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi.

Baholash mezonlari: boshqaruv qarorlarining asoslanganligi, resurslardan samarali foydalanish, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish. Baholash usullari esa: amaliy vaziyat (case-study), faoliyatni kuzatish, ekspert bahosi.

Kommunikativ kompetensiya ta'lim muassasasida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mezonlar: samarali muloqot olib borish, nizolarni konstruktiv hal qilish, jamoani motivatsiyalash.

Refleksiv komponentni baholash mezonlari ham o'ziga xos bo'lib, refleksiya liderning o'z faoliyatini tahlil qilish va rivojlantirish qobiliyatini ifodalaydi. Unda baholash ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- o'z faoliyatini tanqidiy baholash;
- xatolardan xulosa chiqarish;
- professional o'sishga intilish.

Axloqiy-ijtimoiy komponentni baholash mezonlari muhim bo'lib, pedagogik liderlik axloqiy qadriyatlarsiz samarali bo'la olmaydi. Unda baholash mezonlari adolat va halollik, ijtimoiy mas'uliyat hamda pedagogik etika bilan ifodalanadi.

Liderlik kompetensiyalarini baholash darajalari muhim ko'rsatkich bo'lib, baholash jarayonida kompetensiya darajalari aniqlanadi: quyi – bu kompetensiya epizodik namoyon bo'ladi, o'rta – bu vaziyatga mos ho'ga qo'llaniladi, yuqori – bu barqaror va mustaqil namoyon bo'lishidir.

Liderlik kompetensiyalarini baholash jadvali

1-jadval

Komponent	Mezoni	Ko'rsatkich	Baholash vositasi
Kognitiv	Nazariy bilim	Strategik fikrlash	Test
Operatsion	Qaror qabul qilish	Case tahlil	Ekspert
Kommunikativ	Muloqot	Jamoa bilan ishlash	Kuzatuv
Refleksiv	O'zini baholash	Portfel	Esse
Axloqiy	Etika	Mas'uliyat	So'rovnoma

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, liderlik kompetensiyalarini baholash mezonlarini ilmiy asosda belgilash ta'lim sifati boshqaruvining muhim shartidir. Taklif etilgan mezonlar tizimi ta'lim rahbarlari va pedagoglarning kasbiy rivojlanish darajasini aniq va obyektiv aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv ta'lim tizimida liderlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-sonli "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori // Xalq so'zi. – T, 2021. – 19 yanvar – B. 1-2

Bush, T. *Educational Leadership and Management: Theory, Policy, and Practice*. 2nd edition. – London: SAGE Publications, **2019**. – 208 p.

Turayev. K Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiyamaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. –T. 2020. 69-b

Turayev. K Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiyamaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. –T. 2020. 14-b.

Qodirov X.O. OTM talabalarida liderlik sifatlari bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik salohiyatning ahamiyatli qismi sifatida// Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2020.– № 2 (23). – B. 87- 91.